

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

**ERTANGI KUN - PORLOQ VA YORUG' KELAJAK BILIMLI YOSHLAR QO'LIDA,
ULARNING TINIMSIZ IZLANISHLARIDADIR**

Mubinova Aziza

*Buxoro davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Yoshlarga qaratilgan e'tibor. Ularning ilm olishlari, o'z maqsadlariga erishishlari uchun yaratib berilayotgan imkoniyatlar, har tomonlama barkamol, iqtidorli yoshlarning rivojlanib borayotgan dunyo taraqqiyotiga ta'siri.

Annotation: Attention to young people, the opportunities created for them to learn, the influence of well-rounded, talented young people on the development of the developing world.

Kalit so'zlar: Yoshlar, bilim, shukrona, kelajak, kutubxona, orzu, izlanuvchan, qobiliyatli, dunyoqarash, maqsad, harakat

Key words: Young people, knowledge, gratitude, future, library, dream, inquisitive, capable, outlook, goal, action

Yoshlar-kelajak liderlari. Har tomonlama yetuk, bilimli, ma'naviyati yuksak, falsafiy dunyoqarashga ega bo'lgan, zamon bilan hamnafas harakat qiladigan, ilm yo'lida tinimsiz izlanish olib boradigan, Vatanining ravnaq topishiga, rivojlanishiga o'zining munosib hissasini qo'shadigan, intellektual salohiyati, qobiliyatini namoyon qila oladigan, sa'y-harakatlari bilan yuksak marralarni ko'zlab, ularni zabit etish uchun tun-u kun izlanayotgan, nafaqat o'z Vataniga, balki dunyo taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadigan malakali kadrlarni yetishtirib chiqarish hozirgi zamon talabi.

Dunyo shiddat bilan o'zgarib borayotganligiga barchamiz guvoh bo'lmoqdamiz. XXI asr Axborot texnologiyalari asri. Axborot texnologiyalari asrida insonlar uchun barcha imkoniyatlar va qulayliklar yaratilgan bo'lib, biz shunday tinch, farovon, osoyishta yurtda hayot kechirayotganligimiz uchun Yaratganga behisob shukronalar qilmog'imiz darkor.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonlaridan yoshlarga yaratib berilayotgan cheksiz imkoniyatlar, ularga qaratilgan e'tibor, kelajak liderlarining ilmli, hayotda o'z o'rniga ega bo'ladigan, yurtimizning g'ururi, shon-u shrafi sifatida taniladigan, farovon diyorning baxtiyor farzandlari bo'lib, Vatanlarini dunyoga tanitadigan avlod vakillari bo'lishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Har bir davlatning tayanchi, ustuni - uning yoshlari. Ma'naviyatli, ma'rifatli, ertasi uchun bugundan, hozirdan harakat qiladigan avlodni tarbiyalash, ayni davrning asosiy vazifasi sanaladi.

Yoshlar-har bir millat va yurtning boyligi, buyuk salohiyati hamda kuch qudrati manbayi. Ularning ilm egallashlari, unga qiziqishlari, ehtiyojlari, intilishlari kitobga bo'lgan mehr-muhabbatlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Bugungi kunda yurtimizning barcha hududlarida bir qancha kutubxonalar faoliyat yuritib kelmoqda. Ma'rifat

maskani bo'lmish kutubxonalarga har kuni minglab yoshlar ilm istab boradilar, kutubxonadagi minglab "zabonsiz, minnatsiz do'st"lar har bir insonga ilm ulashishdan aslo charchamaydi. Inson qancha ko'p kitob mutolaa qilsa, ilmlar xazinasidan qancha ko'p bahramand bo'lsa, uning dunyoqarashi, ruhiyati tubdan o'zgaradi, inson o'zini, o'zligini, kimlarning avlodidan ekanligini anglab, isloh qila boshlaydi. O'zbekiston aholisining 60 foizdan ziyod qismini yoshlar tashkil qiladi. Shu boisdan ham olkamizda yoshlarga g'amxo'rlik qilish, ularning ilm olishlari, komil va barkamol avlod bo'lib voyaga yetishlari, shuningdek, yuksak marralarni zabit etishlari, muvaffaqiyatga erishishlari uchun jamiyki imkoniyatlar eshigi ochib qo'yilgan. Bilim olish-insonni yuksaltiradi, uni ko'proq kitob mutolaasi bilan band bo'lishga, kitoblar olamidagi tengi yo'q mo'jizalarga guvoh bo'lishga, tilsimli xazinalar ortidan yuksak cho'qqilarga ko'tarilishga undaydi, yo'l ko'rsatadi, ko'mak beradi. Bu muqaddas zaminni asrab-avaylash, mehnatkash xalqimizning orzu-umidlarini, niyatlarini ro'yobga chiqarish, yurtimizni dunyoning taraqqiy etgan, rivojlangan davlatlari qatoriga olib chiqishdek sharaflı ishda yoshlarga bildirilgan yuksak ishonch, mana shu mas'uliyatli vazifani sidqidildan, vijdonan ado etish kelajak liderlari, ertangi kunimiz qahramonlari zimmasidagi asosiy burch sanaladi. 2017-yil 30-iyunda Prizdentimiz Sh.M.Mirziyoyev davlatning turli sohalarida yuqori natija va yutuqlarga erishayotgan yoshlarni rag'batlantirish va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida "Kelajak bunyodkori" medalini ta'sis etish taklifini ilgari surdi va shu yilning o'zida u ta'sis etildi. Bugungi kunda bir qancha bilimli va ziyoli yoshlar, mustaqil izlanuvchilar, tadqiqotchilar bu oliy sovringa sazovor bo'lib, diyorimizning iftixori va g'ururiga aylanmoqdalar. Bu ham muhtaram yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning yoshlarga yaratib bergen imkoniyatlarining debochasi sifatida ko'zga tashlanadi. Yoshlarning iqtidorini, iste'dodini, ilmini namoyon etish, ularning qobiliyatlarini ko'rsatish, ulardagи salohiyatni butun dunyoga tarannum etib, O'zbekistonning jahonda tutgan o'rni va mavqeyini yanada yuqoriga olib chiqish uchun ko'plab qulayliklar va imkoniyatlar, shart-sharoitlar, afzalliklar yaratib berilmoqda.

Prezidentimiz o'zlarining har bir nutqlarida O'zbekistondagi barcha o'zgarishlarning tub mohiyati, maqsad-muddaosi yoshlarga to'g'ri ta'lim-tarbiya berish ekanligini ta'kidlab, bu borada chuqur islohotlar olib borilayotganini aytib o'tadilar. Shavkat Mirziyoyev tomonidan ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi sa'y-harakatlarni tizimli, samarali, bosqichma-bosqich yo'lga qo'yish bo'yicha besh tashabbusning ilgari surilishi, O'zbekiston tarixida yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda zamonaviy usullardan foydalanishni, uni amaliyotda qo'llashni, ularga ilmning cheksiz sarhadlarini egallahlarida yordam berishi bilan yangi bir davrni, bosqichni boshlab berdi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Besh tashabbus doirasidagi har bir tashabbus o'z ichiga yoshlarning manfaatlari, huquqlari, ilm olishlarida qanday imkoniyatlarga egaligini yaqqol namoyon qiladi. Jumladan 4-tashabbus, asosan, yoshlarni ma'nani va aqlan yuksaltirish, ularning ruhiyatini tetik, irodasini mustahkam qilishda,

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

dunyoqarashini ilm bilan bog'liq yangiliklar orqali tubdan isloh qilish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish, yoshlar qalbida kitobga bo'lgan cheksiz muhabbat tuyg'usini shakllantirish va ongiga chuqur singdirish kabi faoliyatlarni tashkil etishga yo'naltirilgan. Umuman olganda, yoshlarning maktab, akademik litsey, kollej va oliy ta'lif muassasalarida ta'lif olishi, bu davrlar oralig'ida ularga beriladigan bilimni puxta o'zlashtirishlari, ularni qobiliyati, xarakter-xususiyati va ehtiyojidan kelib chiqib ma'lum bir kasb-hunarga yo'naltirish, madaniyatli, ma'rifatli, komil inson bo'lib yetishishi, buning uchun modern, ilg'or-innovatsion, texnologik shart-sharoitlarni yaratib berishda O'zbekiston katta kuch sarflamoqda. Albatta, bu ulkan ishonchni oqlash va unga munosib avlod bo'lish yoshlar qo'lida. Chunki, bilimli yoshlarni har taraflama qo'llab-quvvatlash, jismonan sog'lom, ma'naviy jihatdan yetuk, o'zining zamonga mutanosib rang-barang g'oyalari, qarashlari, loyihalari bilan dunyo hamjamiyati taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatib, yurtimiz bayrog'ini ko'klarga ko'taradigan kelajak liderlarining zaminimizdan yetishib chiqishi, shubhasiz, biz uchun buyuk bir faxrdir. Bularning natijasi o'laroq, bugungi davr yoshlari yuksak bilimli, teran fikrlovchi, zamonaviy qarashlarni o'zida mujassam eta olgan, har qanday ma'naviy tahdidlarga o'zining mustahkam irodasi, xulqi, odobi bilan qarshi tura oladigan avlod sifatida kamol topib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli kitobi 2022-2026 yillarga molljallangan bo'lib, bu kitobda O'zbekistonni rivojlangan davlatlar qatorida yuqori o'ringa olib chiqish uchun qanday yo'llardan yurish kerakligi, bu borada qanday prinsiplarni tanlab olish zarurligi, yoshlarning Yangi O'zbekistonda "Uchinchi Renessans"ni bunyod etish jarayonida tutgan o'rni, ularning ilm-u urfonli, ma'rifatli bo'lib shakllanishlarida barcha imkoniyatlarni safarbar etmoqlikni, buning uchun davlat byudjetidan yetarlicha mablag' ajratish kerakligi haqidagi muhim va siyosiy ma'lumotlar, ularni amalga oshirishda buyuk mas'uliyatni his etish hamda muhtaram yurtboshimizning yoshlar to'g'risidagi ko'plab nutqlari asardan o'ren olgan. Shuningdek, asarda yorug' va porloq kelajak sohiblarining ta'lif olishi, bilim egallashi bilan bog'liq masalalar bo'yicha fikr bildirilib, mamlakatimizda yuqori bilim va malakaga ega bo'lgan, raqobatdosh saviyali kadrlarni tayyorlash, ularga ilmni yetkazib berishda yangi, modern vosita va metodlarni qo'llash, yoshlarning dunyoqarashlarini o'stirib, o'z bilimi va imkoniyatlarini to'liq Vatanimiz rivoji, ravnaqi, gullab-yashnashi yo'lida jalb eta oladigan qilib tarbiyalash maqsadida oliygochlari soni 141 taga yetkazilgani, 26 ta xorijiy oliy ta'lif muassasalarini filiallarining yurtimizda qad rostlagani alohida e'tiborga va ahamiyatga molik voqeadir. O'z navbatida malakali, bilimli, o'z sohasini chuqur biladigan mahoratlari mutaxassislarini tayyorlash maqsadida keyingi 5 yil ichida oliy ta'limga qabul kvotasi 3 barobarga oshirildi va birgina joriy yilda 182 ming nafar yoshlar talabalik baxtiga muyassar bo'ldilar, ularga bunday imkoniyatga erishish nasib etdi.

2030-yilga qadar umumiyl o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lif bitiruvchilarini oliy ta'lif bilan qamrab olish darajasini 50 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Bu

yurtimizda yildan yilga oliy ma'lumotli, yuqori malakaga ega, intellektual salohiyatli, kreativ fikrlaydigan yoshlarning yanada oshib borishini, ularga bu borada ehtiyoj sezilayotganligini, ularda mutaxassisliklari bo'yicha ilgari o'rganilmagan manbalarga murojaat qilish, bilimini yanada kengaytirish imkoniyati mavjudligini, pirovard natijada esa tajribali, qiziqishi tufayli dunyo ilm-fanidan ham bevosita xabardor bo'lgan, o'zining salohiyati, ilmi bilan jahondagi tengdoshlariga namuna bo'la oladigan, chet el oliyoholarida ta'llim olib, O'zbekistonga ko'plab ilg'or innovatsion rejalarini, loyihalarni, turli fan sohalardagi yutuq va muvaffaqiyatlarni, yangi ma'lumotlarni olib kiruvchilarning ko'payayotganligi Yangi O'zbekistonni qurish va rivojlantirish yo'lidagi jadallahishni anglatadi. Bilimli yoshlar-jamiyatning ertasi, yorug' va porloq kelajagi. Ular tom ma'noda, O'zbekistonning eng katta boyligi, bebafo xazinasi hisoblanadi. Negaki, Yangi O'zbekiston yoshlari-kelajagimiz va istiqbolimiz poydevori. Poydevor qancha mustahkam bo'lsa, maqsadga erishish shunchalik sharafla va oson bo'ladi. Yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlarning cheklanmaganligi, bu siz-u biz yoshlardan maqsadlarimiz yo'lida og'ishmay harakat qilishimiz kerakligini bizga takror-takror eslatadi, buyuk ajodolarimiz, allomalarimizga munosib avlod bo'lish, ularning boqiy merosini asrab-avaylash, tobora chuqur o'rganish va tahlil qilish, keyingi avlod vakillariga yetkazmoqlik vazifasini kelajak liderlari zimmasiga yuklaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari va qarorlari bilan tashkil etilgan "Yosh kitobxon" tanlovi O'zbekiston yoshlar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilishga qaratilgan bo'lib, unda barcha yoshdagi shaxslar ishtirok etish va tanlovda g'alabaga erishish huquqiga ega bo'lib, bu tanloving tashkil etilishi ularda kitobga bo'lgan mehrni yoshligidan singdirishga xizmat qiladi. "Yosh kitobxon" tanloving Respublika bosqichida 1-o'rinni egallagan yoshlarga Prezident sovg'asi "Spark" ning taqdim etilishi ham yoshlarni ilhomlantirib, mutolaa zavqini his etish uchun ularni kutubxonalarga borishga, u yerdagi bebafo boyliklar bo'lmish kitoblarni miriqib, soatlab mutolaa qilishga chorlaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Bugun bitta kitob o'qigan bola, ertaga o'nta televizor tomosha qilayotgan bolani boshqaradi" degan gaplari yuqorida aytilgan fikrlarimizning yaqqol isbotidir. Yurtboshimizning bu so'zlarida hayotiy hikmat pinhonligini anglashimiz darkor. Agar inson bugun kitob o'qimasa, o'zi uchun harakat qilmasa, u orzu-maqsadlariga erisholmaydi, ular o'sha insonning sarobiga aylanadi.

Hozirgi davr yoshlarini yagona maqsad mushtarakligi birlashtirib turadi. Bizning asosiy vazifamiz shuki, Vatanimizning ishonchi, ustuni, ertangi kunining qahramoni sifatida uning rivoji yo'lida barcha harakatlarimizni safarbar etib, ochilmagan qirralarimizni namoyon qilib, XXI asr yoshlari orasidan Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek kabi buyuklarni kashf etmoqlik, O'zbekistonning jahon miqyosida egallagan mavqeyini yanada oshirish, maqsadga erishish yo'lida olg'a qadam tashlash va harakat qilishdan, izlanishdan, muvaffaqiyat sari dadil qadam tashlashdan aslo to'xtamaslikdir.

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Shavkat Miromonovich Mirziyoyev. " YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASI ". Toshkent: O'zbekiston, 2021. 464-bet.
- 2.Shavkat Miromonovich Mirziyoyev. "MILLIY TIKLANISHDAN MILLIY YUKSALISH SARI ". Toshkent : O'zbekiston, 2020.
- 2.Dunyo Axborot Agentligi sayti
- 3.Review.uz jurnali
- 4." Xalq so'zi " Rasmiy kanal/ 2021-yil 9-yanvar
- 5.saviya.uz sayti